

Dilorom Tashpulatova

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KLAS
TER
YONDASHUV ASOSIDA O'QUV FANLARINI
INTEGRATSION O'QITISH
MECHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TAILIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Dilorom Tashpulatova

**BOSHLANG'ICH TALIMDA KLASSTER YONDASHUV
ASOSIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSION O'QITISH
MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Monografiya

Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2023

UO'K: 37.013
KBK: 74.2
T-29

Tashpulatova D.M.
Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish. [Matn]: Monografiya / Tashpulatova D.M. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti, 2023. – 124 b.

Mazkur monografiyada boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning nazariy masalalari, shakllari va samaradorligi muammolari tadqiq etilgan. Unda qo'yilgan muammoning o'rganilish darajasi bo'yicha tahlillar amalga oshirilib, bu boradagi yondashuvlar umumlashtirilgan.

Monografiya talabalar, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va sohaga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:
O.M.Jabborova
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tagrizchilar:
D.T.Pulatova
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sh.Q.Mardonov
pedagogika fanlari doktori, professor

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2023-yil 14-martdagi ilmiy texnik kengashida ma'qullangan (3-sonli bayonoma) va nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9167-0-7

© Tashpulatova D.M., 2023.
© "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti, 2023.

KIRISH

Jahonda ta'lim vositasida insoniyatni va dunyo mamlakatlarini hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bunda ta'lim tizimini tipiklashtirilgan va yagonalashtirilgan xalqaro ta'lim dasturlari asosida takomillashtirish hamda rivojlantirish muhim o'rin tutmoqda. Mazkur jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrda oliy ta'lim: yondashuvlar va amaliy choralar" butun jahon deklaratsiyasi, shu tashkilotning "Yoshlar-2030: yoshlar bilan ishlash va yoshlar manfaatlari yo'lida" xalqaro yoshlar strategiyasi muhim asos bo'lmogda. Bunda yosh avlodning ta'lim vositasida tafakkuri va ko'nikmalarini mamlakatlarning tajribalari asosida shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, TIMSS va STEAM kabi xalqaro ta'lim dasturlari ham jahon ta'lim tizimining rivojlanishiga asos bo'lmogda. Ta'kidlangan xalqaro dasturlar asosida ishtirokchi davlatlarining ta'lim jarayoni hamkorlikda xalqaro miqyosida rivojlanib boryotganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimlarida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'qitish jarayonini amalga oshirish islohotlari kechmoqda. Bunda jahon mamlakatlari ta'lim tizimida o'quv fanlarini xalqaro ta'lim dasturlari qoidalari, talablari va baholash mezonlariga amal qilish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Maqsad - dunyo mamlakatlarida o'zaro bog'liqlikda tipiklashtirgan ta'lim tizimiga ega bo'lish va uning vositasida faol shaxsni voyaga yetkazishdir. Shu sababli bugungi kunda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ham milliy o'quv tajribasi hamda xalqaro ta'lim dasturlari va bu boradagi xorijiy mamlakatlarning tajribalariga asosan o'quv jarayonini tashkil etish hamda o'quv fanlarini o'qitishni takomillashtirib borish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada keyingi besh yil davomida ta'lim jarayonini

takomillashtirishga yo'naltirilgan mutlaqo yangi mazmundagi pedagogik ilmiy-tadqiqotlar yaratilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Misol uchun, mamlakatimiz 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar ishtirok etadigan PIRLS xalqaro ta'lim dasturi testlarida ilk bor ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu xalqaro ta'lim dasturi o'quvchilarning o'qib tushunish va matematik savodxonlik darajasini aniqlaydi, baholaydi hamda o'quvchilarning mazkur ko'nikmalarini yanada rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-34-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-112-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 27 fevraldagi PQ-131-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan ta'lim tizimida o'qitish jarayonini takomillashtirib borish va unda zamonaviy texnologiyalarga asoslanish muammolari bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada B.Abdullayeva, O. Azizov, Sh.Abdullayeva, R.Jo'rayev, A.Zunnunov, R.Mavlonova, Sh.Mardonov, U. Maxkamov, O. Musurmonova, R. Safarova, M. Quronov kabilarning tadqiqotlarini o'qitish jarayonining asoslari bo'yicha muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Bevosita boshlang'ich ta'lim muammolari va ta'limning bu bosqichida o'qitish jarayonini tashkil etishning integratsion asoslari

muammlari bo'yicha akademik R.Jo'rayev, R.Safarova, O.Adezo, B.Abdullayeva, G.Akromova, A.Tojixonov kabilarning ilmiy tadqiqotlarini muhim metodologik asoslab bayon qilingan.

Xorijlik pedagoglardan Ya.Komenskiy, K.Ushinskiy, M.Montessori kabilar tomonidan boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlarini tanlash va ularni o'qitishda asoslaniladigan metodologiyalar ishlab chiqilgan. Pedagog olimlardan A.Gerd, Ya.Habibovskiy, M.Skatkin kabilarning tadqiqotlarida pedagogik jarayonni integratsion tashkil etish va uning asosida o'qitish jarayonini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Klassterli yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish va unga asosan o'qitish samaradorligiga erishish masalalari olimlarimizdan G.Muxamedov, U.Xodjamqulov, S.Toshtemirova, Sh.Qudirova kabilarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan bo'lib, bu borada o'ziga xos nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ayni paytda, klassterli yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini integratsion o'qitish muammosi maxsus tadqiq etilgan emas.

Markur milliy va xorijlik pedagog olimlarimizning ilmiy, nazariy qarashlari va metodologik tavsiyalari tadqiqotimizning konsepsiyasini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich ta'limda klasster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish muammosini o'rganish va tadqiq etishdan iborat.

Monografiyaning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

boshlang'ich ta'limda klasster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati, uning xususiyatlari va muammolarini o'rganish;

boshlang'ich ta'limda klasster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllarini tadqiq etish;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllaridan foydalanishning amaliy asoslarini ishlab chiqish;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va uning natijasi asosida tavsiyalarni shakllantirish.

Monografiyaning ob'yekti boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini klaster yondashuv asosida integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari va undan foydalanish jarayoni tashkil qiladi.

Monografiyaning predmeti boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini klaster yondashuv asosida integratsion o'qitishning turkumlashitirib o'qitish va xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanib o'qitishning integratsion shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

Monografiyaning tadqiqot usullari sifatida klasterli yondashuv asosida integratsion o'qitish usullari, shakllari va vositalari; sintez va analiz, tipologik tahlil; boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini turkumlashitirib o'qitishning integratsion usulbariga tayanildi.

Monografiyaning ilmiy yangiligi quyidagicha faraz etildi va asoslandi:

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati, uning xususiyatlari va muammolari o'rganilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllari tadqiq etilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllaridan foydalanishning amaliy asoslari ishlab chiqilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va uning natijasi asosida tavsiyalar shakllantirilgan.

Monografiyaning amaliy natijalari sifatida quyidagilarga erishildi:

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati, uning xususiyatlari va muammolari tadqiq etilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllari tahlil qilingan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllaridan foydalanishning amaliy asoslari shakllantirilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va uning natijasi asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Monografiya natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi: tadqiqotning ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish muammosi tadqiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning o'quv fanlarini turkumlashitirib o'qitish va ularni xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanib o'qitish integratsion shakllari ishlab chiqilganligi bilan tashlanadi.